



## **TALIM JARAYONIDA PEDOGOKNING NUTQ MADANYATINI O'RNI VA AHAMYATI**

**YULCHIYEVA NILUFAR AXMADJONOVNA**

*Bag'dod agrotexnologiyalar texnikumi rus-tili fani o'qituvchisi*

**SOLIJONOVA NAIMAXON FAHRIDDIN QIZI**

*Bag'dod agrotexnologiyalar texnikumi maxsus fani o'qituvchisi*

**MAMURJONOV MUHAMMADDIYOR SALOHIDDIN O'G'LI**

*Bag'dod agrotexnologiyalar texnikumi tarixfani o'qituvchisi*

**Anotatsiya:** *Pedagogning asosiy quroli – soʻz. U qayralgan, binobarin, oʻtkir, koʻp qirrali boʻlishi, vaqt oʻtishi bilan oʻtmaslashib bormasligi lozim. Nutq madaniyati- bu fikrlarni til vositasi bilan toʻgʻri, ravon, aniq, taʼsirchan qilib bera olishdir.*

**Kalit soʻzlar:** *pedagog, nutq, oʻqituvchi, nutq madaniyati, soʻz, til, fikr,*

Bugungi kunda pedogoglarning bilim darajasiga, malakaviy salohiyatiga, auditoryaning boshqara olish qobiliyatiga, talab va ehtiyojlar kuchaygan bir davrda , pedogokning nutq madaniyati aratirlik qobiliyati juda muhim sanaladi. Nutq madaniyatida oʻqituvchining nutqi aniq va ravon boʻlishi kerak. Oʻqituvchi dars jarayonida oʻz fikrini oʻquvchilarga yetkaza olishida , uning nutqiy salohiyati, ijodkorligi bilim va tajribasi muhimdir. Muxtaram prizdentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovich tomonidan “Maktablar oldiga qoʻyilayotgan talablardan biri – yuqori malakali, sohasining bilimdoni boʻlgan oʻqituvchi-pedagoglar bazasini shakllantirish bilan birgalikda, maktabda chet tilini xam oʻqitishdir. Bu kabi ixtisoslashgan maktablarning tashkil etilayotgani yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qilishi” alohida taʼkidlandi.



Nutq-arabcha soʻzdan olingan boʻlib, kishilarning ijtimoiy aloqa quroliboʻlgan tildan foydalanib, xususiy suhbatda, umumiy majlis, uchrashuv vayigʻinlardagi gapi yoki oʻqib eshittirgan soʻzlaridir.

Nutq-maʼlum maqsad bilan soʻzlanadi va maʼlum bir gʻoyaviy yoʻnalishga hamda estetik taʼsir kuchiga egadir.

Nutq madaniyati- bu fikrlarni til vositasi bilan toʻgʻri, ravon, aniq, taʼsirchan qilib bera olishdir.

Madaniyat -soʻzi ham arabcha soʻz boʻlib, shahar maʼnosini bildiradi. Fikrni izchil, ravon, ixcham va badiiy sodda ifodalagan nutq chiroyli nutqdir[4].

Nutq madaniyati - til normalarini egallamoq, talaffuz, urgʻu, soʻz ishlatish, gap tuzish qonuniyatlarini chuqur bilmoqdir. Shuningdek, tilning tasviriy vositalari har xil sharoitlarga mos, maqsadga muvofiq boʻlishi kerak.nutqda til - fikr almashish quroli, oʻqituvchi qalbinign oynasi, oʻqituvchinign dars berish uslubini, pedagogic mahoratini toʻliq namoyon qiluvchi vosita. Nutqda - tildagi rang-barang vositalar oʻz ifodasini topsa, bunday nutq - boy nutqdir. Nutq madaniyati - ijtimoiy madaniyatni, kishilik jamiyati madaniyatini aks ettiruvchi bir koʻzgudir. Nutq madaniyati adabiy tilning har ikki shakli - yozma va ogʻzaki shakli uchun zarurdir. Oʻqituvchi uchun nutq madaniyati va nutq texnikasi juda ham zarur boʻlgan omil sanaladi. Oʻqituvchi nutqining taʼsirchanligi nutqning asosiy sifatlaridan biri sanaladi va nutqdagi toʻgʻrilik va aniqlik, mantiqiylik va tozalik tinglovchiga taʼsir etish uchun yoʻnaltirilgan boʻladi. Nutqning taʼsirchanligi deganda, asosan, oʻqituvchining ogʻzaki nutq jarayoni nazarda tutiladi va oʻquvchilar tomonidan qabul qilinishida paydo boʻladigan ruhiy vaziyat eʼtiborga olinadi. Yaʼni, notiq-oʻqituvchi oʻquvchilarni hisobga olishi, ularning bilim darajasidan tortib, hatto yosh xususiyatlarigacha, nutq ijro etilayotgan paytdagi kayfiyatlarigacha kuzatib turishi, oʻz nutqining oʻquvchilar tomonidan qanday qabul qilinayitganini nazorat qilishi lozim. Professional bilimga ega boʻlgan oʻqituvchilar joʻn, sodda tilda



gapirishlari maqsadga muvofiq emas, oddiy, yetarli darajada notiqlik ma'lumotiga ega bo'lmagan yosh o'qituvchilar ham ilmiy va rasmiy tilda gapirishga harakat qilishlari kerak emas. Xullas, notiq-o'qituvchidan vaziyatga qarab ish tutish talab qilinadi va ifodalamoqchi bo'lgan har qanday fikrini to'laligicha o'quvchilarga yetkazishga harakat qilish vazifa qilib qo'yiladi[2]. O'qituvchi o'z nutqida shevalardan, parazit so'slardan foydalanmasligi zarur.

Nutq madaniyatining asosiy jihatlaridan biri -bu til va nutqning o'zaro bog'liqligi. Til -bu insonning o'z fikrlarini, his-tuyg'ularini va tushunchalarini ifodalash vositasi bo'lib, nutq esa bu tilning amaliy qo'llanilishidir. Nutq madaniyati, shuningdek, tilni to'g'ri va samarali ishlatish, so'z boyligini oshirish, muloqotda aniq va ravon bo'lish kabi ko'nikmalarni o'z ichiga oladi. Nutq madaniyatiga ega bo'lgan insonlar o'z fikrlarini aniq va tushunarli tarzda ifodalashga, boshqalar bilan samarali muloqot qilishga qodir bo'ladilar. Ijtimoiy hayotda nutq madaniyatining o'rnini juda katta. U odamlar o'rtasidagi munosabatlarni shakllantiradi, ijtimoiy normalarni belgilaydi va jamiyatda o'zaro tushunishni osonlashtiradi. Nutq madaniyati orqali odamlar o'z fikrlarini ifodalash, muammolarni hal qilish va ijtimoiy masalalarni muhokama qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu jarayon, o'z navbatida, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi va jamiyatda ijtimoiy aloqalarni mustahkamlaydi. Nutq madaniyati ta'lim jarayonida ham muhim ahamiyatga ega. Tarbiyachilar o'z mashg'ulotlarida nutq madaniyatini rivojlantirishga e'tibor berishlari kerak. Tarbiyalanuvchilar bilan muloqotda bo'lish, ularning fikrlarini tinglash va ularga o'z fikrlarini ifodalashga imkon berish orqali tarbiyachilar tarbiyalanuvchilarning nutq madaniyatini oshirishda yordam beradilar.[3] Pedagoglar o'z nutqi orqali o'quvchilarga, tarbiyalanuvchilarga o'rnak bo'lishlari zarur. Pedagogning nutq odobi uning salohiyatini ko'zgusidir.

Pedagogning asosiy quroli – so'z. U qayralgan, binobarin, o'tkir, ko'p qirrali bo'lishi, vaqt o'tishi bilan o'tmaslashib bormasligi lozim. Buning uchun pedagog



badiiy adabiyotni, izohli lugʻatlarni, qomuslarni koʻp oʻqishi, mutolaa qilishi, notanish soʻzlarni yon daftariga izoxlab yozib olishi, vaqti-vaqti bilan takrorlab turishini tavsiya etamiz. Pedogod jamiyatning boshqa qatlamlaridan oʻz xulqi, dunyoqarashi , maʼnaviy tafakkuri,goʻzal nutqi bilan ajralib turadi.

## XULOSA

Xulosa oʻrnida shuni aytish mumkinki, bugungi kunda oʻqituvchining oldiga izlanish , zamon bilan hamnafas boʻlish , ijodkorlik, shu bilan bir qatorda , nutqiy madanyat , soʻzlarni oʻrnida qoʻllay olish, shevalardan, parazitid soʻzlardan foydalanmaslik masulyati qoʻyilgan. Pedogog auditoryani boshqarishda uning nutqiy salohiyati alohida oʻrin kasb etadi. Hozirgi paytda oʻqituvchilarning bilim salohiyatiga, malakaviy darajasiga, ijodkorlik faoliyatiga, qadr-qimmatiga , mavqeyiga katta eʼtibor berilmoqda. Oʻqituvchi goʻzal nutqi orqali oʻquvchilarga doimo oʻrnak boʻlishi lozim. Chunki oʻqituvchining darsdagi asosiy qurollarida biri uning chiroyli nutqidir. Shuning uchun pedagog doim izlanishda, badiiy adabiyotlarni koʻplab mutoala qilishdan toʻxtamasligi zarur. Uning qancha soʻz boyligi koʻp boʻlsa, shunch nutqiy madanyati yuqori boʻladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Prizdentimiz Shavkat Mirziyoyevning "Ta'lim sohasidagi islohotlar yuksak natijalar bermoqda" yig'lishdagi nutqidan . 08.10.2017
2. Mirzayeva Shodiya Mo'minjon qizi "O'qituvchi faoliyatida nutq texnikasi va madaniyati" "Science and Education" Scientific Journal / Impact Factor 3,848 (SJIF)February 2023 / Volume 4 Issue 2
3. Abdurahmonova, D. "O'zbek tilida nutq madaniyatini rivojlantirish." Toshkent davlat pedagogika universitet. (2017).
4. Zebiniso Ahmedova ,Zarif Quvonov " O'QITUVCHI NUTQI MADANIYATI" o'quv qo'llanma. Navoiy-2008